

PUBLITSISTIK MATNLARDA KIRISH VA KIRITMALARNING QO'LLANISHI

Xatamova Durdonaxon

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 3-bosqich talabasi

Arabboyeva Mahfuza

Andijon davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada kiritmalar haqida ma'lumotlar berilgan, bundan tashqari publistik matn va uning xususiyatlari, publistik matnlardan kiritish va kiritmalarning qo'llanishi haqida so'z boradi. Tilshunosligimizga hozirgi kunda berilayotgan e'tibor va uni sohalarini yanada rivojlantirish davr talabi ekanligi qisqacha bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Kiritmalar, publistik matn, publistik matnda kiritmalarning qo'llanilishi, etimologiya, dialektik.

Gap bo'laklari bilan sintaktik bog'lanmagan, gap bo'lagi vazifasida bo'lman, gapning ayrim bo'laklari yoki butun gapning mazmuniga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalovchi so'z. Kiritish so'z barcha uslubda uchraydi, qolgan nutqlarga qaraganda badiiy, publistsistik nutqda ko'proq qo'llaniladi, so'zlashuv nutqida badiiy va publistsistik nutqlarga qaraganda biroz kamroq, ilmiy va rasmiy uslubda esa kam uchraydi. Ammo shunga qaramay har qaysi nutqda kiritish so'z matn mazmuniga qo'shimcha ma'no – ishonch (albatta), gumon (shekilli), quvonch (hayriyat), fikr xuloslash (xullas), fikr tartibi (birinchidan) – berish uchun xizmat qiladi. Masalan: Zokir ota, shubhasiz, juda tajribali paxtakor (publistsistik nutq); Hayriyatki, yana ko'rishishga tuyassar bo'ldik (badiiy nutq); Xususan, kesim modallikni namoyon qilishi bilan ajralib turadi (ilmiy nutq); Jumladan, mazkur qaror ijrosi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasiga yuklatilsin (rasmiy nutq); Xullas, bu qilib'ing bo'lindi (so'zlashuv nutqi). Tilimizdagi kiritishlar deb umumlashtiriladigan birliklar juda katta uslubiy, ekspressiv- emotsiyonal imkoniyatlarga ega. Kiritishlar so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga bo'lgan subyektiv bahosi, turli munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi, ya'ni nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligi, ekspressivligini ta'minlaydi. Ular ishonch (u, albatta, keladi), gumon- taxmin (u, ehtimol, keladi), istak, mammunlik (u, xayriyat, keldi), taajjub (tavba, u kelmaydimi?!), ta'kid (axir, u keladi), fikrning kimga tegishliligi (menimcha, u keladi), fikrni jamlash, xuloslash (xullas, u keladi) kabi bir qancha uslubiy ma'nolarni ifodalaydi. Kiritishlar mohiyatan subyektiv ma'no ifodalashga xos langani uchun rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi. Kiritishlar alohida so'z (afsuski, sizningcha, aytishlaricha kabi), so'z birikmasi (gapning ochig'i, dangalini aytganda, so'zning qisqasi kabi), gaplar (rostini aytasam, o'ylab ko'rsam, buni qarang kabi) yoki undan katta birliklar shaklida bo'lishi mumkin. Kiritishlar asosiy gapdan verguldan tashqari, ayniqsa, gapga teng holatlarda qavslar, ba'zan tire bilan ajartilishi mumkin. Kiritmalar uslubiyati. Tilimizdagi kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruvchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publistsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi. Kiritmalar ham so'z, so'z birikmasi va gap shakllarida bo'lishi mumkin. Ko'pincha qavslar bilan asosiy gapdan ajratiladi: O'g'lining qo'liga to'rt dona chachvon (chimmat) tutqazdi. (G'afur G'ulom) Ijobatni olgandan keyin yuqorida mazkur Toshkent ashroflari bir majlis qurib, o'tirishga Normuhammad qushbegi (Toshkent hokimi)ni ham chaqiradilar. (Abdulla Qodiriy) Oqposhshoning in'omi kelganini eshitgan xotinlar (ustaning onasi va xotini) talashib, nari-beri gapga borib qoldilar. (cho'lpox) salomatxonning dadasi, soqol-mo'ylovidan

tegirmon gardi arimaydigan (u kishi qishloqda tegirmونchilik qilardi) xushsurat mo'ysafid qizining peshonasidan o'pib xayrashdi. (Said Ahmad). Kiritma konstruksiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklar ma'nosiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik - semantik jihatdan munosabatga kirishadilar. Kiritma konstrutksiyalar intonatsion jihatdan mustaqillikkha ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar. Sintaktik vazifa bajarmaydilar. gap bo'lagi yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib hisoblanmaydilar. Kiritma konstruksiyalar tushunilishi qiyin yoki tushunilmaydigan so'zlar (dialektizm, professionalizm, termin, jargonizm, arxaizm, istorizmkabilar) ma'nosini, ayrim leksik birliklarning talaffuzi va etimologiyasini izohlash, so'zlovchining subyektiv - emotsiyal munosabatini ifodalash, xabar manbasini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmatqiladi: Boshidagi qalampir nusxa qora do'ppisi ham (na Chust nusxagao'xshaydi, na Marg'ilon nusxaga) yallgi. (H.G'.) Engil atlctika bo'yichao'tkazilgan musobaqada Nazira Ermatova (Toshkentdan), Vali Nazarov (Buxorodan), Vera Ivanova (Samarqanddan) g'olib chiqdilar. Tilimizdag'i kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar juda katta uslubiy-ekaspressiv-emotsional imkoniyatlarga ega. Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gunoni, tasdig'i, inkori va h.), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatliligi darajasi (birinchidan, ikkinchidan va h.), fikri va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi. Kiritmalar so'zlovchining aytayotgan fikriga munosabatini ifodalaganligi uchun rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi. Kiritmalar alohida so'z (aytishlaricha kabi), so'z birikmasi (gapning ochig'i, dangalini aytganda, so'zning qisqasi kabi), gaplar (rostini aytsam, o'ylab ko'rsam, buni qarang kabi) yoki undan katta birliklar shaklida bo'lishi mumkin. Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiyligi mazmuniga daxldor bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan tobe-hokimlik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan asosan vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi. Tilimizdag'i kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'minlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publisistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi. Kiritmalar ham barcha bo'laklar singari soda va murakkab bo'ladi. Sodda kiritmalar so'zlar va so'z-gaplar bilan, murakkab kiritmalar esa so'z birikmasi, kengaygan birikma va gaplar bilan ifodalanadi. So'z birikmasi va gap shakllarida kelgan kiritmalar ko'pincha qavslar bilan asosiy gapdan ajratiladi: Ijobatni olgandan keyin yuqorida mazkur Toshkent atroflari bir majlis qurib, o'tirishga Normuhammad qushbegi (Toshkent hokimi)ni ham chaqiradilar. Oqposhshoning in'omi kelganini eshitgan xotinlar (ustaning onasi va xotini) talashib, nari-beri gapga borib qoldilar. Salomatxonning dadasi, soqol-mo'ylovidan tegirmon gardi arimaydigan (u kishi qishloqda tegirmонchilik qilardi) xushsurat mo'ysafid qizining peshonasidan o'pib xayrashdi. Publisistik uslub o'zbek tili uslublari tizimida kitobiy uslub sifatida qaraladi. Unda amal qiladigan barcha me'yorlar adabiy til me'yorlari doirasida bo'lishi taqozo etiladi. Publisistikaga oid ayrim janrlarning so'zlashuv jarayoni bilan bog'liqligi unda so'zlashuv uslubiga oid xususiyatlarning namoyon bo'lishiga ham olib keladi. Har ikki uslub xususiyatlari uyg'unlashgan holda yuzaga chiqishidan qat'iy nazar Publisistik uslub kitobiy uslub va so'zlashuv uslubining etaloni sifatida omma uchun adabiy nutq namunasi vazifasini o'taydi. Bu uslublarga bog'liq ravishda publisistik matnlar yozma va og'zaki shakllarda namoyon bo'ladi. Ammo yozma shakldan foydalanish ustunlik qiladi. Siyosiy sharhlovchilar, kommentatorlar, eshittirishni olib boruvchilar, diktordarning chiqishlari va suhbatlariga oldindan tayyorgarlik ko'riladi – qog'ozga tushiriladi. Hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshiriladigan, spontan nutqdan foydalanish undan keyingi o'rinda turadi. Ba'zi holatlarda bu ikki shakl aralash holda keladi. Siyosiy-publisistik nutqning bu ko'pincha davlat rahbarlari foydalanadilar. Publisistika tufayli, radio va televiedenie tilida tez-tez murojaat qilib turilishi natijasida nutqning og'zaki shakli faqat maishiy

faoliyat doirasida qolib ketmadi, u so‘zlashuv va kitobiy nutq doirasida ham amal qila boshladi. Deyarli kitobiy vositalar qo‘llaniladigan ilm-fan, rasmiy axborot, publitsistikaga ham kirib bordi. Bu esa kitobiy va so‘zlashuv nutqini o‘zaro yaqinlashtirishga, faollashtirishga va jadallashtirishga xizmat qildi. Aytiganchidan shunday xulosa kelib chiqadiki, publitsistika va jurnalistika mutlaq bir uslubga xos bo‘lgan usullardan foydalanayotgan emas. Unda nutqning hozirgi o‘zbek tili keng qamrovli tizimidagi barcha – kitobiydan (ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy) tortib, so‘zlashuv nutqigacha (adabiy-so‘zlashuv, muomala-maishiy, oddiy nutq) elementlari keng qo‘llanilmoqda. Publitsistik uslubning o‘zbek tili funksional uslublari tizimida tutgan o‘rnini qanday va uning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat, degan savollar mazkur uslubning mohiyatini aniqlashimizga imkon beradi. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz ekstralingvistik shart-sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq holda publitsistik uslub o‘z lingvistik uslubiy xususiyatlarini namoyish etadi. Bu xususiyatlar til qatlamlarining barcha sathlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, fonetik sathda kitobiy va so‘zlashuv elementlarini talaffuz qilishning uyg‘unligi, ohangning muayyan semantik-stilistik vazifalarini bajarishga bo‘ysundirilishi; leksik sathda ijtimoiy-siyosiy leksikani samarali qo‘llash; morfologik-so‘z yasalishi sathida ot va fe’lning kategorial shakllarini faol ishlatish; abbrevituralar, qisqartmalardan foydalanish; sintaktik sathda sintaktik qurilmalarning oddiyligi, gap qurilishining tartibligi, jumlaning mantiqiy markazi hisoblanadigan gap bo‘laklari inversiyasi, poetik sintaksis va sn elementlari kabilar mazkur uslubning lingvistik xususiyatlaridir. O‘zbek tili FULARIDA sintaktik kategoriyalarning amal qilishida ham umumiylilik, ham xususiylik mavjud.<sup>1</sup> Bu qonuniyat publitsistik uslubga ham daxldor. Xususiylikning namoyon bo‘lishi OAVlarining janr xususiyatlariga bog‘liq. Shu ma’noda ekstralingvistik omillarga ham bog‘liq bo‘lgan holda radio, televiedenie va gazeta-jurnallar tili va bayon uslubi bir-birlaridan farqlanadi. Masalan, radio nutqini olaylik. Soha tadqiqotchilarining radiojurnalistikaga oid ishlarda «uzun jumlalar, kirish va ergash gaplarga radio chiday olmaydi», «ergash qo‘shma gaplar radioning dushmani» singari fikrlarini eslaylik. Teleradio nutqida og‘zaki nutq xususiyatlari mavjud bo‘lsa-da, kitobiy nutq elementlari qo‘llanilishi ustunlik qiladi. Publitsistik uslub vazifaviy uslubning bir turi bo‘lib, u ijtimoiy, siyosiy so‘z va iboralarning qo‘llanishi, janrlarning xilma-xilligi va buning natijasida til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va shu kabilar belgilar bilan xarakterlanadi. Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda, siyosiy chiqishlarda, majlislardagi nutqlar va shu kabilarda o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni targ‘ib qiluvchi va keng xalq ommasiga yetkazuvchi vosita sifatida bu uslub tilining rang-barangligi bilan kishilar ongiga ko‘proq ta’sir etadi.

Kirish kengaytiruvchilar so‘z, birikma va gap ko‘rinishlarida bo‘lish mumkin. 1.Farg’onada, balki, balqarsan.(A.O.) 2.Tabibning ta‘biricha, shohning sog‘ayishi uchun uch narsa zarur ekan. (Ertakdan.) 3.Men sizga aytsam, bir kunda uch mahal shaharga qatnashning o‘zi bo‘lmaydi.(Samar Nuriy.) Shu sababli kirish kengaytiruvchilar kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap kabi turlarga bo‘lib o‘rganiladi. Aslida barcha kirish kengaytiruvchilar nominativ birliklardir. Garchi ularning ayrim ko‘rinishlari gap xarakterida bo‘lsa-da, ularni tom ma‘nodagi gap deb bo‘lmaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan, men sizga aytsam qurilmasi mazkur gap tarkibida shaklan gap ko‘rinishida bo‘lsa-da, uning zimmasiga fikr ifodalash, axborat uzatish vazifasi yuklatilmagan. Unda Pm shakli mavjud bo‘lsa-da, unda tegishli ma‘nolar voqelanishi o‘ta kuchsizlangan. Shu boisdan undagi shakllari va unga mos gap kengaytiruvchilar o‘zgartirib ko‘rilsa, uning kirishlik mohiyati butunlay yo‘qoladi. Kirish kengaytiruvchilarning umumiyligi va o‘zlariga xos xususiyatlari quyidagilar: Kirish gap tarkibiga muayyan denotativ ma‘nolari bilan kirmaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan Men sizga aytsam kirish gapidagi so‘zlarda harakat, harakatni bajaruvchi shaxs, ob‘ekt kabi ma‘nolar ifodalanmagan. Unda bir butun holda «ishontirish» modal ma‘nosini mavjud. Grammatik shakllanganlik nuqtai nazaridan kirishlar rang-barangdir. Unda tuslangan fe‘llar ham (aytsam), tuslanmagan fe‘llar ham (shunday qilib), otlar ham (chamasi), olmoshlar ham (meningcha) kirish vazifasida keladi. Ammo ular, aytilganidek, ba‘zan qisman, ba‘zan butunlay o‘z lug‘aviy ma‘nosini

yo'qotib, paradigmasidan vaqtincha uzilgan bo'ladi. Kirish kengaytiruvchilarning barchasi o'ziga xos yagona «so'zlovchining o'z fikriga munosabatini bildirish» umumiylar ma'nosi ostida birlashadi. Kirish kengaytiruvchilarning gapdagi o'rni qat'iy emas. Bu belgilarning barchasi kirish kengaytiruvchilarni o'ziga xos lug'aviy-sintik guruhni tashkil etadi. Kirish kengaytiruvchilar gapda quyidagi ma'nolarni ifodalaydi. Ta'kidlash, tinglovchining diqqatini bayon qilinayotgan fikrga tortish, takrorlayman, muhimi, ishonsangiz, masalan, misol uchun, ta'kidlayman, aytish kerakki; Sub'ektiv munosabat, his-tuyg'ularni ifodalash: baxtimizga, baxtga qarshi, uylayman, umid qilaman, o'ylaymanki, shubhasiz, ehtimol, shu ma'noda, qaysidir ma'noda, afsuski, attang, essiz; Fikrni bayon qilish usuliga munosabat: to'g'risini aytganda, bir so'z bilan aytganda, sodda qilib aytganda, aniqrog'i, qisqasi, gapning indallosi. Fikrning bog'lanishini, matn tarkibiy qismlari orasida munosabat, ichki a'loqa kabilarga so'zlovchining qanday qarashini: demak, xulosa, sababi, shunday qilib, ko'rindiki, ma'lum bo'ladi, buning ustiga, odatda. Aytileyotgan fikrning kimga tegishli ekanligini bildiruvchi so'zlar: menimcha, fikrimcha, uning so'ziga qaraganda, aytishlaricha, xabar berishiga qaraganda. Fikrning tartibini, izchilligini bildiradigan so'zlar: birinchidan, avvallo, ikkinchidan. Kirish bo'laklar. Bular bir so'zdan iborat bo'lib, ma'lum so'z turkumibilan bog'lanadilar. Shunga ko'ra, kirish bo'laklar quyidagi gaplarga bo'linadi: A) ot tipidagi kirish bo'laklar: chamasi, taajub, modomiki, odatda, oxiri, nazarimda, baxtimizga, baxtga qarshi, so'ziga ko'ra kabilalar; B) olmosh ti pidagi kirish bo'laklar: menimcha, seningcha, uningcha; C) sifat tipidagi kirish bo'laklar: so'zsiz, to'g'ri, durust, qisqasi, tabiiy kabilalar; D) son tipidagi kirish bo'laklar: birinchidan, ikkinchidan kabilalar; E) ravish tipidagi kirish bo'laklar: dastlab, oxir, nihoyat, umuman, asosan, aksincha kabilalar; F) fe'l tipidagi kirish bo'laklar: kechirasiz, bundan chiqdiki, anglashiladiki, deyman kabilalar. Kirish birikmalar. Bular birikma holida bo'lib, ularning strukturasiquyidagicha: A) qaratuvchili kirish birikmalar: uning fikricha, buning ustiga, seningnazaringda kabilalar; B) sifatlovchili kirish bilikmalar: bir tomonidan, shu jumladan kabilalar; C) to'ldiruvchili kirish birikmalar: menga desa, qisqasini aytsam, to'g'risini aytgrmda kabilalar; D) holli kirish birikmalar: qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiq gapirganda kabilalar; E) aniqlovchi va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning so'ziga qaraganda, sening gapingga qaraganda kabilalar; F) aniqlovchi va holli kirish birikmalar: uning ochiq aytishicha, un ingochiq gapirishicha; G) aniqlovchi, hol va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning ochiiq gapirishga qaraganda. Kiritma gapning qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdan farqi uning ma'lum gapga nutq momentida tug'ilib qolgan ehtiyoja ko'ra kutilmagan tarzda birdan kiritilishidir. Bu uni sof nutqiy xodisadek tasavvur qilishga olib keladi. Biroq so'zlovchi ongida kiritma qurilmalarni gapga kiritish ko'nikma va malakasi mavjud bo'lib, bu uning lisoniy hodisa tajallisi ekanlididan, lisonda uning nutqiy qo'llanish andozasi mayjudligidan dalolat beradi. Kiritma qurilmalarning o'rni ham gap tarkibida qat'iydir. U asosiy fikrga qo'shimcha, ilova fikrni ifodalaganligi bois gap avvalida kela olmaydi. Chunki asosiy fikr boshlanmasdan ilova fikrni berish noo'rindir. Shuningdek, kiritma gap oxirida ham bo'lmaydi. 3. Kiritma gaplarning yana bir xususiyati uning yig'iq (kesimdangina iborat) bo'lmaslidir. 1. Yalpiz (cho'l yalpizini aytgani yo'q) oshga solinadi. 2. O'sha yosh bolani (u ota-onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi. Chunki, birinchidan, fikr qo'shimcha bo'lsa-da, u muhim, shu boisdan, odatda, uni faqat kesim bilan berishning imkoniy yo'q. Ikkinchidan, kiritma bir so'z bilan berilsa, u ajratilgan bo'lakka aylanib qoladi: Onam (o'gay) meni ko'p urishardi. Bunday ko'rinishdagi ajratilgan bo'lak ba'zi darslik va qo'llanmalarda kiritma gap sifatida talqin qilinadi. Biroq Otam (o'gay) qazo qildi gapida o'gay birligi ajratilgan aniqlovchi (Bayroq, havo rang, hilpiramoqda gapidagi kabi). Demak, kiritma qurilmali gaplar mohiyatan qo'shma gaplarga o'xshaydi. Biroq grammatik shakl va intonatsion o'ziga xoslik ularni farqlovchi belgidir. Misol sifatida O'rmondan (u yerda yirtqich hayvonlar bor edi) bo'kirgan ovozlar eshitilardi gapini olaylik. Gap mazmunini O'rmonda yirtqich hayvonlar bor, shuning uchun u yerda bo'kirgan ovozlar eshitilardi deya tushunish mumkin. Biroq uni O'rmonda bo'kirgan ovozlar eshitilardi, u yerda yirtqich xayvonlar bor edi tarzida o'zgartirilsa, gaplardagi grammatik mustaqillik kuchayib, ular qo'shma gapni hosil qilmaydi, balki alohida sodda gaplarga

aylanadi. Asarning har qanday tuzilishi, tabiiyki, muayyan qismlarning mavjud bo‘lishligi va ular ma'lum tartibda joylashtirilishi kerak. Adabiyotshunoslikda «kompozitsiya» termini bilan bir qatorda «arxitektonika» terminidan ham foydalaniлади. Evropa me'morligiga oid bu termin vositasida ijodchining ishi me'morning ishiga o‘xshatiladi. Adabiy asarda ham, xuddi me'moriy inshoat va/yoki imorat singari barcha unsur (qism)lar shunday joylashtirilgan bo‘lishi kerakki, toki ulardan birontasi ham ortiqcha yohud o‘rinsiz joylashgan bo‘lmasin. Muallif materialidagi qismlar chegarasi (xajmi) aniq belgilangan, tuzilishi qat’iy qilib qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Ba'zan shunday ham bo‘ladiki, atoqli adib qalamiga mansub asarlarni tahrir qilishda muharrirni muallifning salobati bosadimi, har holda ayrim uslubiy hatolar o‘tib ketadi. Masalan: Xo‘ja Afzal hech nima deyishni bilmay qoldi (“Navoiy” 263-b.) Bir necha kundan so‘ng Navoiyning Yaqubbekka sovg‘a - salomlarini olib mehmonlar jo‘nab ketdi. Bir necha haftagini Navoiyning oldida tun-kun birga bo‘lib, ...Birinchi jumladagi uslubiy xatoni ikki talqinda bartaraf qilish mumkin. Birinchi talqinda ko‘ra hech so‘zi qisqartiriladi: Xo‘ja Afzal nima deyishini bilmay qoldi. Ikkinci talqin - Xo‘ja Afzal hech nima deyolmay qoldi. Muallifning uslubiga ko‘ra aslida hech so‘zi o‘rnida biron so‘zi bo‘lishi kerakka o‘xshaydi. Ya’ni: Xo‘ja Afzal biron nima deyolmay qoldi. Muharrir bunday tuzatishni amalga oshirganda ham muallif uslubiga putur yetmasdi, aksincha, u sayqallangan, ta’sirchan, shu bilan birga nutq egasining muayyan vaziyatdagi holatiga mos ifoda namoyon bo‘ladi, adresatning lol qolganlik darajasi haddan yuqoriligi ayon seziladi. Adib yozadi: Goho shoirni, go‘yo uyqu bosgandek, charchog‘lik egallab oladi. Yoki qalamni olib ilhomning shafaqday sof, rangorang bulutlariga o‘raladi-da, tog‘larda orombaxsh uyqudan tong yellari bilan uyg‘ongan kishidek o‘zini yengil sezadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. . Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olrijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2016y.
4. Kollektiv mualliflar. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 1981.
5. Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. Toshkent, 1985.
6. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1992.
7. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tili omonimlari izohli lug’ati. Toshkent, 1984.
8. Ma‘rufov A. Paronimlar lug’ati. Toshkent, 1974.
9. Rahmatullaev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. Toshkent, 1978.
10. Mirtojiev. M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.
11. Usmonov.S. Umumiy tilshunoslik, 151 bet, Toshkent, 1972.
12. Ne‘matov H, Rasulov. R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari, Toshkent, 1995.
13. B.Mengliev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Qarshi. 2004.
14. SH.SHoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1980.
15. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.
16. Fessaloniskiy S.A. Ona tili metodikasi (2001-yil) talabalar uchun o‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent, 2001.